

TURKIY TILDA QO'LLANGAN KELISHIK SHAKLLARI

Xalmuratova Tavus Talibjanovna

*Nukus davlat pedagogika instituti
Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*

Avezova Gulnoza

*Nukus davlat pedagogika instituti
Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*

To'xtaboyeva Shodiya Ibadulla qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti
Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kelishiklar, ularning ahamiyati, kelishiklarning tarixiy taraqqiyot natijasida o'zgarishga uchragan shakllari, kelishiklarning tarixiy manbaalarda qay holatda qo'llangani, ularning variantlari haqida umumiy ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: kelishik, qo'shimcha, turkiy til, qiyosiy tilshunoslik, invariant shakl

O'zbek tilshunosligida kelishiklar katta ahamiyatga ega. Kelishik — ot yoki otlashgan soʻzning boshqa soʻzlar bilan aloqasini koʻrsatuvchi grammatik shakl. U ot shakli ekanligi holda, birikma yoki gap tarkibida uning boshqa soʻzga tobelanishini koʻrsatadi. Kelishiklar tilimizda qadimdan mavjud. Eski o'zbek tilida hozirgi o'zbek tilidagidek, 6 ta kelishik shakli mavjud boʻlgan. Turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlari uchun xarakterli bolgan vosita kelishigi shakli XIII-XIV asrlarga oid yozma yodgorliklar tilida ham ma'lum darajada qollangan. XV asr va undan keyingi davrlarda vosita kelishigining qollanishi ancha chegaralangan bolib, o'zining grammatik xususiyatini yo'qotgan va kelishik kategoriyasi sifatida iste'moldan chiqqan.

Hozirgi o'zbek tilidagi qo'shimchalardagi variantlilik muammosi hanuzgacha maxsus tekshirish obyekti bo'lgan emas. Bu yo'nalishda bazi ishlarga yo'l-yo'lakay fikrlar bildirilgan. Vaholanki, qo'shimchalar tarixiy va fonetik sabablarga ko'ra ko'p variantli shaklida qo'llanishiga chuqurroq nazar tashlasak, bu hodisa bevosita singlarmonizm qonuniyati bilan bog'liq ekanligini koramiz. Qo'shimchalarning variantlilikini o'rganish tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishini atroflicha va chuqur o'rganishga imkoniyat tug'diradi. Qoshimchalarda variantlilikini dastlab turkiyshunoslar N.K.Dmitriyev, S.E.Malov, N.A.Baskakov va boshqalar qadimgi yozma yodgorliklar va turkiy tillar grammatikalari bo'yicha yozilgan ilmiy ishlarida bayon qilganlar. Biroq o'zbek tilshunosligida bu hodisa tizimli tarzda hozirgacha jiddiy o'rganilmadi. Bu esa mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Kelishik affikslari ham egalik affikslari kabi nutqda turli variantlarda qollaniladi. Misol sifatida qaratqich kelishigi invariant shaklining variantlarini kuzataylik:

- a) Poetik varianti: bog'in mevasi
- b) Tarixiy varianti: manim bog'im
- c) Dialektik varianti: kitobing
- d) Fonetik varianti: mening.¹

Kelishik affikslari orqali boshqarish usuli taraqqiyotida quyidagi hodisalarni ko'ramiz: Vosita kelishigi / -n //- in //- in //-u n //~ u n j yordami bilan boshqarish qadimgi va eski turkiy tilda keng iste'molda bo'lib, bu kelishik eski o'zbek tilida XV asrning birinchi yarmigacha qo'llangan.

Tarixiy taraqqiyot natijasida ma'lum kelishikda kelgan so'z bilan fe'l orasidagi ma'no munosabatda ham ba'zi o'zgarishlar ro'y berdi. Hozirgi zamon tilida tushum kelishik shaklidagi so'zni o'timli fe'l boshqaradi. Qadimgi va ilk turkiy tilda bunday turdagi so'zlarni o'timsiz fe'llar ham boshqara olgan: Emdi am kim yàiar — Endi unga kim yeta oladi? Bu ishig'ünàshdilàr — Bu ishga unashdilar. Sàni tágsa — Senga yetsa. Olamn boynin toqutti — U uning bo'yniga urdirdi. Taqrig ogush ogdimiz — Tangriga maqtovlar aytdik.

O'rin, maqsad, sabab, vosita ifodalagan so'zlar jo'nalish kelishigida kela olgan va shunday mazmuni talab etgan fe'l bilan birika olgan: Sàvinch bolsa kimgá — Kimda sevinch bolsa. Masalda kàlir — Masalda keladi. Bak yag'iqa pusdi — Bek dushm andan pisdi (bekindi).²

Ayrim kelishiklarning variantlariga to'talsak. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi uch variantli qo'shimcha hisoblanadi. Nutqda ularning qo'llanishi to'la o'zini oqlaydi. Bundan tashqari, jo'nalish kelishigining quyidagi variantlari bor:

- a) Qisqargan varianti: - a o'g'uz lahjasida - uya bordim
- b) Tarixiy varianti: - ra, - ru, - garu, - g'aru, -karu, - qaru
- c) Poetik varianti: -g'a, - na ustina kabi

Chiqish kelishigining invarianti -dan affiksidir. Orfoepik varianti esa -tan . Bunga qo'shimcha qilib boshqa darsliklarda -din, - tin affikslari chiqish kelishigining mumtoz (poetik) varianti sifatida qo'llanishi ta'kidlangan.

Turkiy tillar kelishiklar tizimi haqida gap borganda, avvalo, turkiy tillarning eng qadimgi bobo til davridagi kelishiklar tizimi ko'zda tutilsa, ikkinchidan, turkiy tillarning mustaqil tillar va lahjalarga ajralish va undan keyingi taraqqiyoti davridagi kelishiklar tizimining holati ko'zda tutiladi. Hozirgi turkiy tillarda jumladan, yoqut tilida 5 ta kelishik, gagauz, turk tillarida 7 ta kelishik shakllariga ega bo'lib, boshqa hamma turkiy tillar 6 ta kelishik shakllarga ega.³

Tarixiy manbaalarni o'qisak kelishiklar haqida juda ko'plab ma'lumotlar mavjid. Kelishiklarning varantlari, kelishiklarning tizimi, qaysi davrda qay shaklda qo'llangani va vaqtlar o'tishi bilan u qanday o'zgarishga uchraganlari haqida bilib olsak bo'ladi.

Turkiy til tarixida kelishiklar qanday shakllarda bo'lganligini bilish uchun eng qadimgi manbaa bu Maxmud Koshg'ariyning „Devoni lug‘at at-turk“ asaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog'ayeva D. „Kelish kategoriyasining variantliligi“ maqolasidan. Scientific progress-2021
2. Ashurboyev S, „O'zbek tilining tarixiy grammatikasi“, Tosh-2012
- 3.1. Tog'ayeva D. „Kelish kategoriyasining variantliligi“ maqolasidan. Scientific progress-2021